

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali – i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich – i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich – b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr,

200 sahifa, oktabr, 2025-yil.



“AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich

Logistika va yetkazib berish xizmatlarini rivojlantirish borasidagi tizimli yondashuv uslubiyoti.....11

Nabiyev G‘ulom Abdisalomovich

Mintaqa iqtisodiyotida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda va barqaror iqtisodiyotdagi roli.....21

Razzakov Durbek Xoshimovich

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....31

Yusupov Farxod Adamboyevich

Ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullar orqali tahlil qilishning xorij tajribasi.....39

Xolmatova Dilafruxxon Maxsudjon qizi

Aholini turmush farovonligini oshirishda kambag‘allikni kamaytirishni o‘ziga xos xususiyatlari.....51

Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna

Tijorat banklari faoliyati moliyaviy natijadorligining nazariy asoslari.....56

Abdusattorov Abdusamat Sobirovich

Temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun raqamli transformatsiya.....66

Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li

Kichik biznes sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar.....74

Sadikov Zafarbek Adilbekovich

Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....81

Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li

Ichki audit samaradorligini baholash mezonlari va buxgalteriya ma’lumotlarining ichki audit jarayonidagi ahamiyati.....88

Maribjonov Botirjon Ikromjonovich

Nodavlat oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish.....97

Fozil Xolmurotov

Xorazm viloyatida savdo va mintaqaviy o‘sish dinamikasini tahlil qilish.....105

Topildiyeв Soxibjon Raximjonovich

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi va muqobil energiyadan foydalanishni joriy etish mexanizmlari.....118

Ruziyeva Umida Muzaffarovna

Tibbiyot muassasalari hisob siyosatida xarajatlar va daromadlar hisobini aks ettirish.....130

Raxmonqulova Nafis Olimjon qizi

Buxoro viloyatidagi to‘qimachilik korxonalarida resurs tejamkorlikning strategik yo‘nalishlari.....143

Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li

Tijorat banklarida investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning takomillashgan metodologiyasi: risk va barqarorlik omillari tahlili.....151

Юлдашев Фозилбек Бахтиярович

Управление бизнес на основе цифровых технологий.....158

Axmedova Nafisa Amirddin qizi

Iqtisodiy tebranishlarning go‘sht narxiga ta‘siri.....168

Tleubergenov Raxat Sharibaevich

Qishloq xo‘jaligida sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi.....175

Ашурметова Нигора Азатбековна, Каримова Мафтуна Нурдиновна

Приоритеты и принципы перехода к зелёной экономике в условиях устойчивого развития.....182

Qudirator Erali Sherali o‘g‘li

Yaylov yerlaridan samarali foydalanish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasi va ularning ilg‘or yutuqlarini respublikamizda qo‘llash imkoniyatlari.....200

UO‘K: 33+633.2

**YAYLOV YERLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH BO‘YICHA
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARNING ILG‘OR
YUTUQLARINI RESPUBLIKAMIZDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI****QUDIRATOV ERALI SHERALI O‘G‘LI**Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish
va tadqiqotlar xalqaro markazi tayanch doktorantiE-mail: qudiratoverali@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada rivojlangan davlatlarda yaylov yerlaridan samarali foydalanish tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqotda taqqoslama va tizimli yondashuv usullari qo‘llanilgan. Natijada Avstraliya, AQSh va Kanadadagi raqamli monitoring, aylanma otlanish hamda kooperativ boshqaruv modellari samarador ekani aniqlangan. Ushbu ilg‘or yutuqlarni O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: yaylov yerlari, xorijiy tajriba, yaylov yuklamasi, chorvachilik, suv infratuzilmasi, agrotexnika, resurslardan foydalanish, davlat ishtiroki.

Аннотация. В статье проанализирован опыт эффективного использования пастбищных земель в развитых странах. Используются сравнительный и системный подходы. Установлено, что модели цифрового мониторинга, ротационного выпаса и кооперативного управления, применяемые в Австралии, США и Канаде, демонстрируют высокую эффективность. Рассмотрены возможности их адаптации к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: пастбищные земли, зарубежный опыт, пастбищная нагрузка, животноводство, водная инфраструктура, агротехника, использование ресурсов, участие государства.

Abstract. The article analyzes the experience of efficient use of pasture lands in developed countries. Comparative and systematic approach methods were used in the study. As a result, it was found that digital monitoring, circular mounting, and cooperative management models in Australia, the USA, and Canada are effective. The possibilities of implementing these advanced achievements in the conditions of Uzbekistan are shown.

Keywords: pasture lands, foreign experience, pasture load, livestock farming, water infrastructure, agricultural technology, resource use, state participation.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligida yaylov yerlari dunyo mamlakatlarida alohida o‘rin egallaydi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma‘lumotlariga ko‘ra yaylovshunoslik va chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijasiga ko‘ra 2050 yilgacha prognozlar keltirib o‘tilgan. Bunda global miqyosda go‘sht va sut mahsulotlariga bo‘lgan talab 2050 yilga borib 44% ga oshishi aytib

o'tilgan. Bu boradagi katta o'zgarish rivojlanayotgan mamlakatlarda sodir bo'ladi, bu mamlakatlarda chorvachilikning ikkala mahsulotiga ham talab keskin oshadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida 1990 yillarida rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda ko'proq go'sht va sut mahsulotlarini iste'mol qilgani hamda 2050 yilga kelib esa bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda go'sht deyarli 168%ga va sut mahsulotlari 64%ga ko'proq iste'mol qilinishi prognoz qilinmoqda.

Shu sababli yaylov yerlarini holatini o'rganish hamda yaxshilash bo'yicha bir qator chora tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. 2023 yil holati bo'yicha dunyoda jami doimiy o'tloqlar va yaylovlar 3,21 million hektarni tashkil etmoqda. Dunyodagi doimiy o'tloqlar va yaylovlar so'nggi yillarda sezilarli darajada o'zgargan bo'lsada 1972-2023 yillar oralig'ida yaylov maydonining ko'payish tendensiyasi kuzatildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda yaylov yerlaridan samarali foydalanish bo'yicha agrar iqtisodchi olimlardan S.S.G'ulomov, N.S.Xushmatov, T.X.Farmanov, R.X.Husanov, U.P.Umurzakov, F.X.Nazarova, N.A.Aimbetov, U.X.Nigmadjanova, A.S.Chertovitskiy, A.K.Bazarov, B.B.Berkinov, A.X.Muxtarov, G.A.Talnpov, N.A.Bobokulov, A.Ye.Tangirov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Aynan yaylov yerlari samaradorligi oshirish bo'yicha agrar iqtisodchi olimlar Sh.K.Narbaev hamda M.M.Yaxyayev ilmiy ish olib borgan va e'tiborga molik ilmiy natijalarga erishgan.

David M. Stafford-Smith (2018) o'z tadqiqotlarida iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror yaylov boshqaruvining modelini ishlab chiqqan. Uning fikricha, rivojlangan mamlakatlarda pastbiq yerlar monitoringida remote sensing va GIS texnologiyalaridan foydalanish yaylov resurslarini uzluksiz baholash imkonini beradi.[1]

Karl Havstad (2015) yaylovlarning ekotizimdagi xizmatlarini iqtisodiy baholash bo'yicha metodik asos yaratgan. Uning tadqiqotlari AQSh milliy chorvachilik siyosatida resurslarni samarali taqsimlashda asosiy manbaga aylangan.[2]

Jean-François Soussana (2017) yaylovlarning uglerod balansiga ta'sirini o'rganib, "grassland carbon sequestration" modeli orqali iqlim siyosatini optimallashtirish usullarini taklif etgan. [3]

Mukhtarbay Abdiev (2020) Qozog'istonning adir hududlarida yaylov yerlaridan ratsional foydalanish usullarini ilmiy asoslab bergan. Muallif yaylovlarni funksional zonalash va rotatsion chorvachilik tizimi orqali resurslarni tiklashni taklif etgan.[4]

Qirg'izistonlik olim Ainura Toktomambetova (2019) FAO bilan hamkorlikda jamoaviy yaylov boshqaruvi modelini yaratgan. Ushbu tizimda mahalliy foydalanuvchilar guruhi yerdan foydalanish huquqini aniq me'yorlar asosida amalga oshiradi.[5]

Tojikiston va Turkmaniston tadqiqotchilari ham (masalan, Tadjibayeva, 2021 va Yusupov, 2018) yaylov resurslarini monitoring qilish va tiklash bo'yicha regional dasturlarda ishtirok etgan.[6]

Nazarova Z. (2022) o'z tadqiqotida yaylov yerlarining iqtisodiy tahlilini olib borib, resurslardan oqilona foydalanishning matematik-iqtisodiy modelini ishlab

chiqqan. Unga ko'ra, raqamli yer nazorati tizimini joriy etish orqali yaylovlardan foydalanish samaradorligini 1,8 barobarga oshirish mumkinligi isbotlangan. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlarini agrar boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish zarurligini asoslab beradi.[7]

Mamatqulov B. (2021) o'z tadqiqotida ekologik jihatdan barqaror yaylov foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, biomelioratsiya usullaridan — ya'ni, tabiiy o'simlik qoplamasini tiklash, eroziya va sho'rlanish jarayonlarini kamaytirish choralarini — tavsiya qilgan. Uning fikricha, yaylov degradatsiyasiga qarshi kurashda biologik yondashuvlar iqtisodiy jihatdan ham tejimli, ham uzoq muddatli natijalar beradi [8]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanishda yaylov yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy, iqtisodiy va ekologik asoslarini o'rganish uchun quyidagi metodlar va yondashuvlardan foydalanildi:

TAHLIL VA NATIJALAR

Chorva mollariga o'rtacha kunlik suv iste'moli normasi Qozog'iston Respublikasi davlat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan buyrug'lari asosida tasdiqlangan suv iste'moli va sanitariya me'yorlarini ishlab chiqish metodikasiga muvofiq belgilanadi.

Qozog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining 2017 yil 24 apreldagi 172-sonli "Qozog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining 2015 yil 14 apreldagi 3-3/332-son buyrug'iga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi, "Yaylovlarning umumiy maydoniga ruxsat etilgan maksimal yuklamani tasdiqlash to'g'risida"gi qurg'oqchil dashtda 1 bosh chorva uchun me'yoriy yuklama: qoramollar uchun – 8,5 gektar, qo'y va echkilar – 1,7 gektar, otlar – 10,2 gektar, tuyalar – 10,2 gektar etib belgilangan (1-jadval).

Fikrimizcha, yaylovlarni rivojlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlashi juda ham muhim sanaladi. Bunda qurg'oqchil yaylovlar - cho'l va dasht hududlarida madaniy yaylovlarni yaratish, ularni parvarish qilish va oqilona foydalanish bo'yicha agrotexnik tadbirlarning ilmiy asoslangan tizimiga asoslangan yuqori mahsuldor yem-xashak ekinlari ekiladigan kompleksni yaratish imkoni tug'iladi. Shu bilan bir qatorda, yaylovlarni boshqarish va ulardan foydalanish rejasiga muvofiq yaylovlardan davriy va izchil foydalanish va ularni mahsuldor holatda saqlash uchun parvarishlash tizimini yaratishda ham davlatning bosh islohatchi bo'lishi zarur hisoblanadi

Shu boisdan Qozog'iston Respublikasida yaylovlarda chorva mollarini sug'orish va yaylovlarda xodimlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun shaxta va quvur quduqlari, suv omborlari, sug'orish punktlari va boshqa inshootlar qurish uchun davlat tomonidan mablag'lar ajratib kelinadi. Shu bilan birga yaylovlar holatini tubdan yaxshilash ko'p yillik va quruq o'simliklarning (ekinlarning) serhosil navlarini ekish orqali yangi o'tloqlar barpo etish bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirib kelinadi.

Yaylovlarning 1ga maydoniga ruxsat etilgan chorva mollari soni (Qozog‘iston Respublikasi)

Ekologik-geografik mintaqa (kichik zona)	Yaylov turi (ustun)	Yaylovlarning o‘rtacha yalpi hosildorligi sentner/gektar	Qayta tiklangan va degradasiyaga uchragan erlarda 1 bosh chorva mollariga to‘g‘ri keladigan yaylov maydoni normasi, gektar							
			qoramol		qo‘y va echkilar		otlar		tuyalar	
			yaylov turi bo‘yicha	cho‘l yaylovi bo‘yicha	yaylov turi bo‘yicha	cho‘l yaylovi bo‘yicha	yaylov turi bo‘yicha	cho‘l yaylovi bo‘yicha	yaylov turi bo‘yicha	cho‘l yaylovi bo‘yicha
Quruq dasht	Turli hil chorva mollari uchun	2,9/1,4	8.5	13	1.7	2.6	10.2	15.6	11.9	18.2

2-jadval

Qozog'iston Respublikasining 2024 yilda hududlar kesimida ozuqa miqdori bo'yicha ma'lumot (ming tonna)

Hududlar	Ildiz meva ozuqa ekinlari	Donli ekinlar	Don dukkakli ekinlar	Silos	Seno	Senaj	Don somoni va qobig'i	Konsentrlangan ozuqa	Ko'k massa	Boshqa ozuqalar
Qozog'iston Respublikasi	5 645,5	60 844,9	2 836,6	794347,4	531296,3	371877,7	121868,2	199 764,8	8898,6	15832,3
Abay	-	993,0	204,0	9 441,6	70 791,6	2 507,3	1 689,4	1 645,3	12,5	391,0
Akmola	161,8	15 503,6	538,1	75 645,1	70 688,3	46 328,7	24 232,2	26 858,2	1898,1	3966,8
Aqto'be	-	519,0	149	5 494,2	53 416,4	4 410,0	606,0	20,0	-	8 371,9
Olmaota	x	6 039,5	289,5	37 520,7	11 726,1	5 215,2	1 008,1	13 884,9	172,6	406,5
Atirau	-	-	-	735,2	7 188,2	-	x	149,0	x	-
G'arbiy Qozog'iston	0	4 769,7	x	1 747,2	50 681,3	162,2	493,4	4 389,6	15,1	18,6
Jambil	-	3 544,0	520,9	367,3	6 940,7	1 241,6	104,7	14 731,0	406,0	1711,1
Jetisu	x	2 966,8	47,3	21 525,5	11 963,1	6 591,5	218,4	1 194,2	128,0	x
Qarag'anda	534,8	-	-	162,6	24 934,8	3 339,6	1 464,6	13 651,4	-	-
Kostanayskaya	-	-	-	207755,8	72 152,9	108021,3	38 349,7	42 015,9	-	-
Qizilo'rda	3,1	266,4	-	1 591,4	1 969,9	12,0	14,1	378,2	-	85,7
Mang'istau	-	117,5	-	-	30,5	-	-	-	-	10,8
Pavlodar	4202	2 189,2	14,6	133831,9	53 577,4	38 130,4	7 405,2	9 791,2	5081,8	x
Shimoliy Qozog'iston	26,9	145,0	30,8	238374,2	58 217,5	136946,8	41 961,3	50 624,4	435,9	-
Turkiston	678,9	8 397,4	-	7 823,1	25 090,5	2 085,9	1 379,8	1 183,8	168,3	116,1
Ulytau	-	-	-	-	1 945,0	-	-	217,6	-	-
Sharqiy Qozog'iston	-	12 375,5	x	52 309,0	9 874,1	16 881,7	2 369,8	17 099,0	555,9	686,5
Ostona shahri	-	-	-	-	30,3	-	10,0	40,0	-	-
Chimkent shahri	x	3 018,3	6,4	22,6	77,7	x	561,4	1 891,2	23,5	-

Respublikada yaylov infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish to'g'ridan to'g'ri hududlar kesimidagi ozuqa miqdoriga ham ta'sir qiladi. Respublikaning Kostanay, Povladar, Shimoliy Qozog'iston, Akmola hududlarida yaylovlardan keng foydalanish bilan birga ozuqaga bo'lgan talab boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligini ko'rish mumkin. Asosiy ozuqa sifatida silos, seno va senaj tayyorlanishi chorva mollarini parvarishlashda asosiy ozuqa sifatida belgilab berilishini ko'rish mumkin (2-jadval).

Rossiya Federasiyasi hududi juda xilma-xil tabiiy muhitni o'z ichiga oladi. Uning g'arbiy qismida keng tekisliklar (Ural tog'lari bilan bo'lingan Sharqiy Evropa va G'arbiy Sibir tekisliklari) hukm suradi. Sharqda janubiy va shimoli-sharqiy Sibir va uzoq sharqning plato va tog'li hududlari joylashgan. Rossiyaning Evropa qismining janubida katta Kavkaz zanjirlari va Elbrus tog'i joylashgan. Ekin maydonlari taxminan 222 million gektarni egallaydi.

Tuproqlar murakkab, aralash tarkibli (kislotali/sho'rli/ishqoriy) va qishloq xo'jaligiga unchalik mos kelmaydi. Taxminan 54 million gektar maydon shamol va suv eroziyasiga, yana 25 million gektar botqoqlar bilan qoplangan. Bundan tashqari 10 million gektardan ortiq maydon sanoat esa og'ir sanoat ifloslanishidan aziyat chekmoqda. Umuman olganda, Rossiya qishloq xo'jaligi o'simlik va chorvachilik tarmoqlarida past mahsulдорlikdan aziyat chekadi, chunki uning keng maydonining katta hududlari noqulay sharoitlarga ega. Cheklangan suv resurslari va og'ir iqlim sharoitining keskin o'zgaruvchanligi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish samarasiz bo'lmoqda, shu bilan bir qatorda murakkab ijtimoiy yo'naltirilgan muammolar sohaning bosqichma-bosqich yomonlashuviga olib keldi. Bunday noqulay sharoitlarga qaramay, qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotda muhim rol o'ynab, sof ishlab chiqarish, bandlik va kapital qo'yilmalarning 25 foizini tashkil etadi. Mamlakatning asosiy oziq-ovqat ekinlari bug'doy, arpa, makkajo'xori, javdar, jo'xori, kartoshka, tariq, grechka, guruch va dukkakli ekinlar etishtirish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda bo'lib, shu bilan birga eng muhim tarmoqlaridan biri chorvachilikni em-xashak bilan ham ta'minlaydi. Bu o'z navbatida chorvachilik sanoatining rivojlanish darajasini belgilabgina qolmay, balki butun qishloq xo'jaligidagi vaziyatga ham ta'sir ko'rsatadi. Rossiyada mavjud 76 million gektar yaylov va pichanzorlar uchun foydalanilsa qo'shimcha 40 million gektar ekin maydonlari yem-xashak yetishtirish uchun ishlatiladi. Bu esa yalpi g'alla hosilining 70% dan ortig'i parranda va chorva mollarini boqish uchun sarflanishi bilan izohlanadi.

Rossiyada barcha yerlar davlat mulki bo'lib, hukumat turli yerdagi yer uchastkalarini muassasalar va shaxslarga ajratish va ijaraga berish huquqiga ega. Yer berish har bir ishni baholovchi va ko'rib chiqadigan maxsus davlat qo'mitasi (KUGI) zimmasida hisoblanib, sobiq *sovxoz* va *kolxozlarning* bir qismi yerdan foydalanish va uning obyektlaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarga ijaraga berilgan bo'lsa, boshqa fermer xo'jaliklari hamon davlat mulki bo'lib umumiy nazorat ostida davlat tomonidan boshqariladi. Ekin ekiladigan yerlarning umumiy maydoni 88 million gektar bo'lib, ularda jami 31 000 ta qishloq xo'jaligi korxonalari, 3 000 ga yaqin kichik ijara asosida faoliyat yurituvchi xo'jaliklar hamda 151 000 dan ortiq fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib kelmoqda. Ekin ekiladigan umumiy yerlarning

66% qishloq xo'jaligi korxonalari, 2% kichik ijara xo'jaliklari va 7% fermerlar hissasiga to'g'ri keladi. Aholi foydalanishi uchun ajratilgan yerlar 5% ni tashkil qiladi. Bu yerlardan odatda aholi shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanishi uchun mo'ljallangan.

Rossiya Federasiyasida 2022 yilda (2023 yil noyabr oyida nashr etilgan), yaylov erlari 76,0 million gektarni yoki qishloq xo'jaligi yerlarining 15 foizini egallaydi. Yaylovlardan o'rtacha foydalanish o'simliklarning degradatsiyasini oldini olishga yordam beradi. Tabiiy yaylovlar asosan qo'y, tuya va ishchi otlarni boqish uchun moslashgan. Shimoliy va janubiy yarim cho'llarda go'sht yo'nalishi bo'yicha qoramollar hamda sut yo'nalishidagi sigirlar boqiladi. Shu bilan bir qatorda ko'pgina hududlardagi yaylovlarda deyarli butun yil davomida qo'ylar boqiladi.

Yaylovlarda o'tlatiladigan hayvonlardan foydalanishning asosiy sharti yaylov erlaridagi mavjud tabiiy pichanlarni maksimal darajada saqlab qolish majburiy rioya qilinadigan qonunlardan biridir.

Standartlashtirilgan yaylovni amalga oshirish kerak. Hayvonlarni boqish uchun taxminiy me'yorlar yaylovda chova mollarini ozuqlantirish 3-jadvalda keltirilgan.

Normativlar qoramol zotiga, mahsuldorligiga, iqlimiga va hokazolarga qarab o'rnatiladi. Bundan tashqari standart yaylovlardan tashqari chorva mollariga qo'shimcha ozuqalar konsentrat, silos, pichan va boshqalar ham beriladi.

Mavsumiy yaylovlardan cheklangan muddatlarda foydalanish ulardan uzoq muddatlarda foydalanish uchun sharoit yaratish imkonini bermaydi. Bahorgi yaylovning boshlanishi, etarli miqdorda ozuqaga ega bo'lish imkonini bersa, uning qiymati kamida 80 ozuqa birlik/ga ega bo'lishi kerak. Bu vaqtga kelib o'tlarning balandligi odatda 5-6 sm ga etadi. O'tlarga zarar bermaslik uchun tuproq yetarlicha quruq bo'lsa, chorva mollarini boqish tavsiya etiladi.

3-jadval

Yaylov erlarida chorva mollarini oziqlantirish birliklari

Hayvon turlari	Hayvonlarning yosh guruhlari	Yaylovlarda boqiladigan hayvonlarga talab qilinadigan ozuqa miqdori, chorva boshiga
	Sigirlar	9-11
Mol go'shti qoramol	1 yoshdan kattaroq hayvonlar	7-10
	Sigirlar bilan buzoglar	12-13
Qo'y: yaxshi – jun olish uchun boqiladigan zotlar	*	1,4-1,5
	**	1,1-1,2
	1 yoshdan kattaroq hayvonlar	1,0-1,1
	1 yoshgacha hayvonlar	0,4-0,5
	*	1,2-1,3
Qo'y: yarim - qo'pol - go'sht va teri uchun boqiladigan qo'ylar	**	1,0-1,1
	1 yoshdan kattaroq hayvonlar	0,8-1,0
	1 yoshgacha hayvonlar	0,3-0,4

Qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni 2023 yil holatiga ko'ra 380,70 mln.ga yoki umumiy yer maydonining 22,2% ni tashkil etadi. Shundan 197,8 mil/ga yoki 52% yerlar qishloq xo'jaligi yerlari hisoblanib, haydaladigan yerlar

116,2 mil/gani, yaylov yerlari 76,0 mil/ga, ko'p yillik ekin ekiladigan yerlar 1,2 mln.ga ni tashkil etadi (4-jadval). Jadval ma'lumotlarini shuni ko'rsatadiki 2022 yilda 1990 yilga nisbatan haydaladigan yer maydoni 16,1 mil/ga, yaylov yerlari esa 11,9 mil/ga kamaydi. Bunday salbiy dinamikaga asosiy sabab 1990 yildan keyin qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi xo'jaliklar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgani bilan izohlanadi.

4-jadval

**Rossiya Federatsiyasining qishloq xo'jaligi maydonlarining
dynamikasi (1990-2022 yy.)**

№	Turlari yerlar	1990		2000		2010		2020		2022		2022-yilda 1990-yilga kelib (+,-) million ga
		million ga	%	million ga	%	million ga	%	million ga	%	million ga	%	
1.	Haydaladigan yer	132.3	59.5	124.4	56.3	115.1	58.7	116.3	59.3	116.2	59.3	-16.1
2.	Ko'p yillik ekin ekiladigan yerlar	1.9	0,9	1.9	0,8	1.2	0,6	1.2	0,6	1.2	0,6	-0,7
3.	Yaylovlar va pichanzorlar	87.9	39.5	90.9	41.1	75.4	38.4	75.9	38.7	76,0	38.7	-11.9
	Jami qishloq iqtisodiy yerlar:	222.4	100,0	221.1	100,0	196.1	100,0	197.7	100,0	197,8	100,0	-24,6

Mamlakatda yaylov yerlaridan foydalanishda chorva mollarini yetishtirish jarayonining asosiy segmentlari bo'yicha ixtisoslashgan davlat korxonalari mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilishi uchun chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Kelgusida ular hamkorlikni rivojlantirishi va chorva mollari uchun bozor infratuzilmasini yaratishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Shu bilan birga, ko'pgina mamlakatlarda yaylov yerlarini rivojlantirishda bir qator muammolarga duch kelmoqda:

- yaylov yerlarini rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvida konseptual tizimli yondashuv mavjud emasligi hamda yaylovlarda asosiy segmentlarini rivojlantirish uchun hech qanday samarali investisiya loyihalariga ega emas;

- Rossiyada yirik chorvachilik xo'jaliklari barqaror amaliyoti va yaylovlarni rivojlantirish dasturlari tugashi munosabati bilan muhim yerlarni yo'qotdi. Yaylov yerlari hamda chorvachilik xo'jaliklari faoliyati uchun yangi yerlarni o'zlashtirish bo'yicha investisiyalar cheklangan;

- yaylov yerlaridan yillar mobaynida qisqarib borish hamda betartib foydalanish chorva samaradorligini pasaytiradigan epidemik muammoga aylandi;

• yaylovlarning bosqichma bosqich isloh qilinishi Rossiyadagi yirik ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshirilishi hamda kuchli raqobatbardosh bosimlarga duch kelishi bilan izohlanadi;

• hozirgi kunda Rossiyadagi yaylov erlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun etarli iqtisodiy imkoniyatlar mavjud emas.

Rivojlangan mamlakatlarning chorvachilik tarmog'i tahlil qilinganda yer resursi iqtisodiyoti yuqori bo'lgan davlatlarda bu sohani rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy boshqaruv tizimi mukammalligi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan o'sish ko'rsatkichi nisbatan yuqoriligi kuzatildi. Shu bois, xorij tajribasini o'rganish va uni mamlakatimizda tatbiq etish asosiy vazifa sanaladi.

5-jadval

Xorijiy tajribalarning mamlakatimizda qo'llashning muhim jihatlari

№	Xorijiy tajribalar tahlili	Xorijiy tajribalarni mamlakatimizda qo'llashning muhim jihatlari
1	Qozog'iston - Intensiv texnologiyalardan foydalanib chorva mollarini etishtirishni yo'lga qo'yish. - Yaylov yerlaridan foydalanish bo'yicha ishchilarning taxminan 50 foizini o'qitish - Yaylov yerlarida kasalliklarga chidamli ekin turlarini mahalliyashtirish	- chorvachilik xo'jaliklari uchun iqlim sharoitimizga mos intensiv texnologiyalarni olib kirish mamlakatimizda yaylov yerlarining intensivlashtirish hajmini o'sishiga erishiladi. - bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan chorvachilik xo'jaliklarini ishchi hodimlarini malakasini oshirish, Yaylovchilik xo'jaliklari hamda ITI va malaka oshirish institutlari negizida tashkil etish soha oldida turgan muammolarni ilmiy yondashuv asosida bartaraf etish imkonini beradi. - chorva mollarini yaylovlarda boqish nisbatan boshqa boqish texnologiyalariga ko'ra sur'ati yuqoriligi, iqlim sharoitimizga mos to'yimli ekin turlarini joylashtirish yaylovlardan yuqori samaraga erishish imkonini beradi.
2	Rossiya - yaylov yerlaridan foydalanishni qonun asosida uzoq va qisqa muddatli subsidiyalar - chorvachilik hamda yaylov yerlaridan foydalanishda kiritilgan zamonaviy texnika va texnologiyalarning 25-30% ni davlat byudjeti hisobidan qoplab berish	- Rossiya yaylov yerlaridan foydalanishni tahlil qilganimizda davlat tomonidan uzoq va qisqa muddatli subsidiyalar joriy etilgani chorvachilikni tubdan isloh qilinishini ko'rsatib o'tilgan. Biz ham mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik va yirik turdagi foaliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar va korxonalar uchun subsidiyalarni joriy etish mexanizmini ishlab chiqarishga qo'llashimiz lozim. - soha oldida turgan asosiy muammolardan biri sifatida qaralayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalarni kiritishda soliq imtiyozlari hamda lizing xizmatlari taklif etilsa chorvachilik xo'jaliklari uchun ijobiy echim hisoblanadi
3	Armaniston - yo'qolib borayotgan ekin turlarini qayta tiklash - banklarda chorvachilikda yaylov yerlaridan foydalanganligi uchun hamda silos, senaj,	-mamlakatimiz iqlim sharoitiga mos ekin turlarini saqlab qolishimiz hamda xorij tajribasi asosda ekin turlarini ko'paytirishni yo'lga qo'yishda, davlat dasturlari asosida yo'qolib borayotgan turlarni qayta tiklash imkonini beradi. Bu tajribani mamlakatimiz hududlari kesimida olib borilishini yo'lga qo'yishimiz lozim.

	yem-xashaklarni saqlashni yo'lga qo'yishi uchun imtiyozli kredit foizi 5 % ni tashkil etishi	-banklar bilan chorvachilik xo'jaliklarini hamkorlikda faoliyat yuritishini ta'minlashimiz hamda foiz stavkalarini mavjud foiz stakalaridan farqli ravishda kamaytirishimiz imtiyozli muddatlarini belgilanishi soha oldida turgan asosiy echimlarni bartaraf etilishiga zamin yaratilgan bo'lar edi.
4	Belorussiya - davlat tomonidan yaylov erlariga subsidiyalar ajratish - kichik qayta ishlash korxonalarini yaylov hududlarida tashkil etish - yaylovlarda turli hil ozuqa resurslarini tashkil etish	-mintaqa iqlim sharoitidan kelib chiqib yaylov yerlariga chorva soniga nisbatan subsidiyalar ajratishni yo'lga qo'yish mexanizmini joriy etishimiz lozim -mamlakatimizda yiliga 2833,3 ming tonna go'sht yetishtiriladi, bu esa mamlakatimizda mavjud hududlarda go'shtni qayta ishlash zaruriyatini yuzaga keltiradi shu bois, yaylov hududlarida kichik qayta ishlash sehlarni ko'paytirish tizimi zarurligini ko'rsatib beradi. -yaylov yerlaridan olinadigan yem-xashaklardan turli hil ozuqa resurslarini shakllantirish uchun mavjud xo'jaliklarni yetarli darajada ta'minlash lozim, chunki ko'pgina xo'jaliklar chetdan qimmat narxda ozuqa import qilishga majbur bo'layotganligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli ozuqa-yem ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishimiz mavjud resurlardan oqilona foydalanish hamda ozuqa uchun qo'shimcha ekin maydonlari ajratilishini ta'minlashimiz lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorij tajribasini o'rganish natijasida mamlakatimiz uchun iqlim sharoitimizga mos tajribalarni qo'llash yaylov yerlarini samaradorligini oshirish imkonini beradi. Yuqoridagi tajribalardan kelib chiqib yurtimizda xorij tajribasini qo'llashda quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

- Rossiya, va Qozog'iston tajribasidan kelib chiqib mamlakatimizda yaylov yerlarini tubdan isloh qilish tizimini yo'lga qo'yish hamda chorvachilik xo'jaliklari negizida joriy etish;

- mamlakatimizga xorij investitsiyalari asosida bosqichma-bosqich chorvachilik klasterlarini joriy etish hamda davlat tomonidan imtiyozlar berilishini yo'lga qo'yish;

- chorvachilik xo'jaliklari uchun iqlim sharoitimizga mos intensiv texnologiyalarni olib kirish hamda yaylov hududlari kesimida intensiv texnologiyalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

yaylov yerlarini rivojlantirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar o'rtasida hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, xorij mutaxassislarini jalb etish hamda aloqa o'rnatishni yo'lga qo'yish.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stafford-Smith, D. M. (2018). Sustainable rangeland management under climate variability. CSIRO, Australia.

2. Havstad, K. M. (2015). Rangeland sustainability and ecosystem services. New Mexico State University Press.

3. Baimbetov, S. A. (2017). Pasture Degradation and Restoration in Kazakhstan. Almaty University Press.
4. Aitbaev, A. K. (2020). GIS-Based Monitoring of Pasture Resources in Central Asia. Dushanbe.
5. Toktomambetova, A. (2019). Community-Based Pasture Management in Kyrgyzstan: Lessons Learned from FAO Partnership. Bishkek: Food and Agriculture Organization (FAO) of the United Nations.
6. Tadjibayeva, M. (2021). Rangeland Rehabilitation and Monitoring Practices in Tajikistan. Dushanbe: Academy of Agricultural Sciences of Tajikistan.
7. Nazarova, Z. (2022). Iqtisodiy tahlil asosida yaylov resurslaridan oqilona foydalanish modeli. Tashkent: TDAU ilmiy jurnali “Agroiqtisodiyot va innovatsiyalar”, №3(45), 67–74.
8. Mamatqulov, B. (2021). Yaylovlardan ekologik barqaror foydalanishning ilmiy asoslari va biomelioratsiya usullari. Qarshi: QarDU Ilmiy axboroti, №2(38), 55–63.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-maydagi PQ–4327-sonli “Yaylovlardan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.
10. Yusupov S. “Yaylovlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish muammolari” // Agrar fanlar, 2020, №3.
11. Qodirov Sh.Q. “Yer resurslarini boshqarish asoslari” – Toshkent: O‘quv qo‘llanma, 2017.
12. Bobojonov I., Djanibekov N. “Land use efficiency and institutional change in Uzbekistan’s rangelands” // Journal of Arid Environments, 2021.
13. Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 632, “On the approval of the regulation on pasture management and their use”, 2018.
14. FAO. “Pasture management in Central Asia: Challenges and opportunities” – Rome, 2019.
15. Bobokulov N., Rabbimov A. Chul yaylovlari xosildorligini oshirish - dolzarb masala. //Uzbekiston kishlok xujaligi jurnali, №11, 2015. - 10-11 b.
16. Tangirov A. Chul-yaylov chorvachiligida xujalik yuritish shakllari. // “Agroilm”, №2(40), 2016. - 25-27 b.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**